


O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO`MITASI

2018 yil aprel oyi uchun O`zbekiston Respublikasi iste`mol sektoridagi inflyatsiya darajasi

2018 yilning aprel oyida iste`mol bozoridagi narx va tariflar o`shish sur`ati 0,9 %ni tashkil etdi. Shundan, mahsulotlar oy davomida o`rtacha 0,4 %ga hamda xizmatlar 2,7 % ga qimmatlashdi.


2018 yilning aprel oyida tovar va xizmatlar turlari bo`yicha iste`mol narxlari indeksi

(o`tgan oyga nisbatan, %)



2018 yil aprel oyidagi narx indekslarini o`tgan oylar dinamikasi bilan taqqoslaganda, ushbu oyda xizmatlar narxi o`shish sur`ati bo`yicha mahsulotlar narxiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo`ldi.

**2018 yilning yanvar-aprel oylarida
iste`mol narxlari indeksi
(o`tgan oyga nisbatan, %)**



Tahlil ma`lumotlariga ko`ra, o`tgan davr mobaynida asosiy guruhlar bo`yicha narxlarning o`zgarishi va ularning iste`mol narxlari indeksi (keyingi o`rinlarda INI)ning o`sishiga mahsulotlar 0,3 foiz darajasi (keyingi o`rinlarda f.d.) hamda xizmatlar 0,6 f.d.da ta`sir ko`rsatgan.

**2018 yil aprel oyida asosiy guruhlar bo`yicha narxlarning o`sishi
va uning umumiy INIga ta`siri**


■ Oziq-ovqat mahsulotlari ■ Nooziq-ovqat mahsulotlar ■ Xizmatlar



Umumiy INI o`sishidagi ta`siri – 0,9 f.d.

Ulush ko`rsatkichlarini quyidagi ko`rinishda ifodalash mumkin:

2018 yil aprel oyida tovar va xizmatlar narxlarning o`ishi va umumiy INlga ta`siri ulushi




Oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Yuqorida ta`kidlanganidek, oziq-ovqat mahsulotlari oy davomida o`rtacha 0,3 %ga qimmatlashib, bu o`z navbatida INning umumiy o`sishiga 0,1 f.d.da ta`sir ko`rsatdi.

2018 yil aprel oyida asosiy guruhlar bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o`zgarishi

(o`sinh (+), pasayish (-) oy davomida, %)



Umumiy INI o`sinhida ta`siri – 0,1 f.d.

Asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari guruhi orasida narxlarning o`shishi hamda pasayishi bo`yicha yetakchilik mos ravishda meva-sabzavot mahsulotlari va tuxumga tegishlidir.

2018 yil aprel oyida asosiy guruhlar bo`yicha oziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari o`zgarishi

(o`tgan oyga nisbatan, %)



Go'sht mahsulotlari

Narxlarning o'sishi:

- go'shtli yarim tayyor mahsulotlar va mahsulotlar – **1,2 %**
- mol, qo'y go'shti va qiyma – **1,1 %**
- tirik va sovutilgan baliq – **2,2 %**

Narxlarning pasayishi:

- tovuq boldiri, son qismlari – **1,2 %**
- Parranda go'shti (sonlardan tashqari) – **2,5 %**

Narxlarning o'sishi:

- suzma – **3,6 %**
- muzqaymoq – **1,2 %**
- qatiq, chuchuk qatiq – **1,1 %**
- tvorog – **0,9 %**
- sut konservalari – **0,4 %**
- smetana, pishloq – **0,2 %**

Narxlarning pasayishi:

- sut – **0,2 %**

Sut mahsulotlari



Yog` va moylar

Narxlarning o'sishi:

- sariyog` – **1,0 %**

Narxlarning pasayishi:

- pista moyi – **1,0 %**
- paxta moyi – **0,6 %**



Meva-sabzavot mahsulotlari

Narxlarning o`shishi:

- karam	– 21,5 %
- banan	– 8,0 %
- nok	– 7,4 %
- sitrusli	– 6,5 %
- olma	– 6,4 %
- pomidor	– 4,8 %
- quruq mevalar	– 2,0 %
- sabzi	– 1,8 %

Narxlarning pasayishi:

- bodring	– 19,9 %
- piyoz	– 17,4 %
- sarimsoq piyoz	– 6,2 %
- kartoshka	– 1,2 %



Un, yorma va dukkaklilar



Narxlarning pasayishi:

- mosh	– 3,0 %
- loviya	– 2,7 %
- no`xat	– 1,4 %
- guruch	– 0,9 %
- grechka	– 0,3 %
- tariq, sutli yormasi	– 0,2 %
- un	– 0,2 %

Ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlaridan tuxum va shakar mahsulotlari narxlari sezilarli darajada **arzonlashgani** (mos ravishda 7,5 % va 3,6 %) boisi, ushbu turdagi mahsulotlar bilan ichki bozorning to`yinganligidir.

Boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining o`rtacha narxlarida jiddiy o`zgarishlar deyarli kuzatilmadi.


Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste`mol narxlari indeksi

Joriy yilning aprel oyi davomida nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari nisbatan barqaror sur`atda o`sganligi qayd etildi. Nooziq-ovqat mahsulotlari o`tgan oyga nisbatan ozgina qimmatlashib, (oylik o`rtacha 0,4 %) bu esa INIning umumiy o`sishiga 0,2 f.d.da ta`sir ko`rsatdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlarining asosiy guruhlari bo`yicha narxlarning o`sishi quyidagi ko`rinishda aks ettirilgan:

2018 yil aprel oyida asosiy turdagi nooziq-ovqat mahsulotlari guruhlarining iste`mol narxlari indeksi

(o`tgan oyga nisbatan, %)




Umumiy INI o`sishidagi ta`siri– 0,2 f.d.

Diagramma ma`lumotlariga ko`ra, sezilarli darajada qurilish materiallari, maishiy to`qimachilik mahsulotlari, oshxona jixozlari hamda avtomobillar uchun yoqilg`i narxlari qimmatlashgan.

Joriy yilning aprel oyi davomida qurilish materiallari narxlari o`sish sur`ati ancha pasaygan bo`lsada, baribir noozik-ovqat mahsulotlari umumiy guruhining o`rtacha narxlaridan yuqori darajada qimmatlashdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari va qurilish materiallari iste`mol narxlari indekslarini solishtirmasi (o`tgan oyga nisbatan, %)



Narxlarning asosiy o`shishi g`isht (3,6 %), sement (2,5 %), bo`yoqlar (1,6 %) gulqog`oz (1,0 %) mahsulotlarida kuzatildi.

Avtomobillar uchun yoqilg`i narxlari indeksining oshishida shuni alohida ta`kidlab o`tish joizki, metan narxining bir qator viloyatlar bo`yicha qimmatlashganligi (respublika bo`yicha o`rtacha o`shish darajasi 8,4 %ni tashkil etdi), shuningdek, mamlakatning barcha hududlari kesimida propan narxining o`rtacha 18,7 %ga arzonlashganligi natijasida yuzaga keldi.

Kiyim-kechak va oyoq kiyim narxlarining ko`tarilishi, mavsumiy o`zgarishlar ta`siri natijasida sodir bo`ldi: bahor-yoz mavsumiy kiyim-kechak hamda oyoq kiyim narxlari qimmatlashishi barobarida, qishki kiyimlar va oyoq kiyimlar narxlarining arzonlashishi kuzatildi.

KIYIM-KECHAK



Narxlarning o`shishi:

- bolalar futbolkasi - **3,2 %**
- erkaklar futbolkasi - **3,0 %**
- ayollarning bahor va yozgi ko`ylaklari - **1,8 %**
- erkaklar shimi - **1,0 %**
- erkaklar jinsi shimlari - **0,8 %**
- bolalar shimlari va ayollar bluzkasi - **0,7 %**
- ayollar shimi - **0,6 %**
- ayollar jinsi shimlari - **0,4 %**
- erkaklar pidjaki va sport kiyimi - **0,3 %**

Narxlarning pasayishi:

- erkaklar paltosi - **2,2 %**
- bolalar kurtkasi - **1,1 %**
- erkakalar charm kurtkasi - **0,9 %**
- erkakalar kurtkasi, sviter va jemperlar - **0,6 %**
- ayollar kolgotkasi - **0,5 %**
- ayollar kurtkasi - **0,4 %**
- ayollar paltosi - **0,3 %**

OYOQ KIYIM



Narxlarning o`shishi:

- past poshnali ayollar tuflisi - **2,1 %**
- maktab bolalari uchun yozgi tufli va yengil oyoq kiyimlar - **1,3 %**
- erkaklar tuflisi - **0,8 %**

Narxlarning pasayishi:

- erkaklar botinkasi - **2,1 %**
- ayollar etigi - **1,5 %**

Xizmatlar iste`mol narxlari indeksi

Aholi uchun xizmatlar oy davomida o`rtacha 2,7 %ga ko`tarildi. Bu esa INI umumiy o`shiga 0,6 f.d.da ta`sir etdi.

2018 yil aprel oyida asosiy turdagi xizmatlar guruhining iste`mol narxlari indeksi (o`tgan oyga nisbatan, %)

Nomi	Indeks o`shishi, %
Uy-joy kommunal xizmatlari	9,3
Sport xizmatlari	1,4
Maishiy xizmatlar	1,3
Tibbiy xizmatlar	0,8
Yo`lovchi transporti xizmatlari	0,5
Maktabgacha ta`lim muassasalari xizmatlari	- 3,4

Umumiy INI o`shidagi ta`siri – 0,6 f.d.

Uy-joy kommunal xo`jaligida narx tariflarining ko`tarilishi umumiy INI o`shiga 0,5 f.d.da ta`sir etishi bilan bir qatorda, jami xizmatlar guruhining o`rtacha o`sh darajasiga katta ta`sir ko`rsatdi.

2018 yilning aprel oyida uy-joy komunal xo`jaligi sohasidagi tariflar indeksi

(o`tgan oyga nisbatan, %)



Ko`rsatib o`tilgan tariflarning oshishi umumiy INI o`shidagi ta`siri – 0,5 f.d.

2018 yil 1 apreldan boshlab Moliya vazirligining qaroriga asosan Respublikaning barcha hududlarida elektr energiya hamda tabiiy gaz uchun to`lovlarning oshgan narx tariflari joriy qilindi.

2017 yil 29 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholiga kundalik hayotda iste`mol qilish uchun sotiladigan suyultirilgan gazning respublika bo`yicha yagona chakana narxini bosqichma-bosqich joriy etish to`g`risida"gi №1033-sonli qaroriga asosan, joriy yilning 1 apreldan boshlab, suyultirilgan gaz narxi o`rtacha 20 % ga qimmatlashdi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, XUJMSH to`lovlari mamlakatning beshta (Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahar) hududlarida ko`tarildi. Suyultirilgan gazning narxлари esa Qoraqalpog`iston Respublikasi hamda Xorazm viloyatlaridan tashqari barcha hududlarda qimmatlashdi.

Maishiy chiqindi uchun to'lovlar narxining oshganligi faqatgina Jizzax hamda Navoiy viloyatlarida qayd etilgan.

Sport xizmatlari sohasida umumiy narxlarning oshishi, Toshkent shahar hamda Qashqadaryo viloyatlaridagi sport va sog'lomlashtirish muassasalari, shuningdek, suzish xavzasi xizmatlariga oylik obuna to'lovlarining qimmatlashishi natijasida sodir bo'ldi.

Uy jihozlari ta'miri xizmatlari oy davomida o'rtacha 1,9 %, uy-joy ta'miri xizmatlari 1,5 %, chevarlik xizmatlari 1,4 % hamda sartaroshlik va kosmetologiya xizmatlari narxlarining 1,3 %ga ko'tarilishi INIdagi maishiy xizmatlar narxlari indeksining 1,3 %ga oshishiga zamin yaratdi.

Yo'lovchi tashish xizmatlari narxining oshishi, asosan havo transporti xizmati tariflarining o'rtacha 4,9 %ga qimmatlashishi bilan bog'liq. MDH va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha parvozlarda uchun chiptalar narxi aprel oyida ko'tarilgan bo'lsa, shu bilan birga mahalliy yo'nalishlarga qatnovchi aviatashuv chiptalari narxining arzonlashishi yevroning milliy valyutaga nisbatan qiymatini pasayishi bilan izohlanadi.